

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Issiqxonalarda o‘stirilayotgan sitrus o‘simliklardan ekologik toza mahsulotlar olish uchun resurs tejamkor yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - sitrus o‘simliklarni turli biologik preparatlar hamda zararkunanda va hasharotlardan himoya qilishda entomopatogen, antifungal mikroorganizmlardan foydalanish asosida kasallik va zararkunandalarga bardoshligini oshirish amaliy tajribalar orqali sitrus o‘simliklarni to‘la nazorat qilishga erishiladi; - issiqxona sharoitida biologik preparatlar qo‘llash, ekinlar hosildorligini sifat va miqdorini oshirishga ta‘siri aniqlanadi; - ekologik toza mahsulot yetishtirishda sitrus o‘simliklarini morfobiologiyasi (o‘sishi, rivojlanishi, barg sathi, hosildorligi va meva sifati) hamda kasalliklarga chidamliligiga bardoshligiga asoslangan resurs tejamkor yetishtirish texnologiyasi yaratiladi; - sitrus o‘simliklardan ekologik toza mahsulotlar olish uchun yaratilgan resurs tejamkor usul natijasida sitrus o‘simliklarni hosildorligining 15- 20 s/ga ortishiga erishiladi; - issiqxonalarda sitrus o‘simliklarga biologik preparatlar qo‘llash hamda zararkunanda va hasharotlardan himoya qilishda iqlim sharoitiga mos entomopatogen mikroorganizmlardan foydalanish hisobiga har bir gektar maydondan o‘rtacha 35-40% xarajatlarning tejaliishiga olib keladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi